

## 6-sinf adabiyot. 2-BSB (50 ball)

### ASAR TAHLILI

*Izoh: ushbu ijodkorlarning she'rlari solishtirilib, tavsiyalar asosida tahlil amalga oshiriladi.*

#### Abayning “Yoshlikdan bilim izlab yugurmadim” she’ri

#### Avaz O‘tar ijodiga mansub “Har tilni biluv emdi bani odama jondur” she’ri

##### BSB bo‘yicha o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar:

- o‘z fikrini imlo va husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozma ifoda etadi;
- mavzuni qayta o‘rganib, o‘rganganlari asosida o‘z fikr-mulohazalari, taassurotlari va xulosalarini aniq, tartibli (ketma-ketlikka amal qilgan holda) hamda badiiy-tasviriy vositalar bilan boyitib ifodalaydi.

##### Bajarish bosqichlari:

1. Ikkala ijodkordan birining she'rini tanlang. Tanlangan she'rning asosiy g'oyasini aniqlab yozing.
2. She'r mazmuni va undagi obraz(lar)ga izoh bering. Muallifning aytmoqchi bo'lgan fikriga munosabatingizni yozma ifodalang.
3. She'rda qanday tuyg'ular aks etgan? Shaxsiy munosabatingizni yozing.
4. Yoqimli hissiyotlaringizni qo'zg'atgan misralarni she'rdan ajratib olib, bu hissiyotlar sizning o'y-xayolingizda nimalarni jonlantirgani haqida yozing.
5. Har ikkala she'rni solishtirib, ularning g'oyasi, tuzilishi jihatdan o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlab, izohlang.

*ESLATMA: har bir topshiriqqa yozgan javobingiz 7-8 gapdan iborat bo'lishi lozim!*

| Baholash mezonlari (50 ball)                                                                                                                                         | Ball           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>1. She'rning asosiy g'oyasini aniqlab yozishi</b>                                                                                                                 | <b>10 ball</b> |
| She'rning asosiy g'oyasini tushungan va bu haqida o'z fikrlarini aniq, tartibli bayon etgan bo'lsa –                                                                 | 10 – 8 ball    |
| She'rdagi asosiy g'oyani tushungan, biroq o'z fikrlarini bayon qilishda izchillik yetishmagan bo'lsa –                                                               | 7 – 5 ball     |
| She'r g'oyasini tushuna olmaganligi sabab g'oya haqidagi fikrlarini yetarlicha bayon eta olmagan bo'lsa –                                                            | 4 – 1 ball     |
| <b>2. She'r mazmuni va undagi obraz(lar)ga izoh berishi. Muallifning aytmoqchi bo'lgan fikriga munosabatini yozma ifodalashi</b>                                     | <b>10 ball</b> |
| She'r mazmunini aniq tushunib, obraz(lar)ga to'g'ri izoh bergan; muallifning aytmoqchi bo'lgan fikriga shaxsiy munosabatini asosli va izchil ifodalay olgan bo'lsa – | 10 – 8 ball    |
| She'r mazmuni va undagi obraz(lar) haqida yetarlicha izoh bera olgan,                                                                                                | 7 – 5 ball     |

|                                                                                                                                                                                         |                |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| ammo muallifning yetkazmoqchi bo'lgan fikri haqidagi munosabatida uzviylik yo'q bo'lsa –                                                                                                |                |
| She'ning mazmunini tushunishga uringan, ammo undagi obraz(lar) haqida yetarlicha izoh bera olmagan, shuningdek, muallifning yetkazmoqchi bo'lgan fikriga munosabat bildirmagan bo'lsa – | 4 – 1 ball     |
| <b>3. She'rda qanday tuyg'ular aks etganligini aniqlab, ularga shaxsiy munosabatini bildirishi</b>                                                                                      | <b>10 ball</b> |
| She'rda aks etgan tuyg'ularga shaxsiy munosabatini tartibli, aniq va asosli tarzda ifodalagan bo'lsa –                                                                                  | 10 – 8 ball    |
| She'rda aks etgan tuyg'ularga shaxsiy munosabatini ifodalashda fikrlari tarqoq bo'lgani sabab, talablardan chetga og'ish holati kuzatilgan bo'lsa –                                     | 7 – 5 ball     |
| She'rda aks etgan tuyg'ularni anglay olmagan uchun shaxsiy munosabatini deyarli ifodalamagan bo'lsa –                                                                                   | 4 – 1 ball     |
| <b>4. Matn asosida o'z hissiyotlarini ifodalay olishi</b>                                                                                                                               | <b>10 ball</b> |
| She'r tarkibidan o'ziga eng maqbul misrani tanlab, shu asosida o'z hissiyotlarini ochiq ifodalay olgan bo'lsa –                                                                         | 10 – 8 ball    |
| She'r tarkibidan o'ziga eng maqbul misrani tanlagan, ammo hissiyotlarini ifodalashda so'z boyligi yetishmagani sabab, fikrlarini o'ta jo'n ifodalagan bo'lsa –                          | 7 – 5 ball     |
| She'r tarkibidan sovuqqonlik bilan duch kelgan misrani tanlab, hissiyotlarini ham yuzaki ifodalagan bo'lsa –                                                                            | 4 – 1 ball     |
| <b>5. She'rlarning g'oyasi, tuzilish tarkibi jihatdan o'xshash va farqli tomonlarini aniqlab, izohlay olishi</b>                                                                        | <b>10 ball</b> |
| She'rlarning g'oyasi, tuzilish tarkibi jihatdan o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlab, izohlay olgan bo'lsa –                                                                       | 10 – 8 ball    |
| She'rlarning g'oyasi, tuzilish tarkibi jihatdan o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlagan, ammo izohlashda so'z boyligi yetishmagani sabab fikrlarini o'ta jo'n ifodalagan bo'lsa –   | 7 – 5 ball     |
| She'rlarning g'oyasi, tuzilish tarkibi jihatdan o'xshash va farqli tomonlarini deyarli aniqlay olmagan bo'lsa –                                                                         | 4 – 1 ball     |
| <b>Jami:</b>                                                                                                                                                                            | <b>50 ball</b> |